

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



"FASHIQOLAYMAN"
Universiteti rektori
B. Abdullayev
11-avgust

**TINGLASH VA ~~GAPRISH~~
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:

200 000 San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi:


230 000 Tillar

Ta'lim yo'nalishi:

60230100 Filologiya va tillarni o'qitish
(roman-german tillari)

Urganch-2021

Mazkuro'quv dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2021-yil "31"
avgustdagi №1-sonli bayonnomasibilan tasdiqlangan.


O'quv ishlari bo'yicha prorektor  S.U. Xodjanliyazov

O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i:

 G'R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Xorijiy filologiya" fakulteti Kengashining 2021-yil
"27" avgustdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.
(№1-sonli bayonnoma).

Fakultet Kengashi raisi:



dots.Jumaniyozov Z.O.

Fan dasturi Xorijiy filologiya fakulteti "Roman-german filologiyasi" kafedrasining
2021- yil 26 avgustdagi majlisida (Bayonnoma № 1) muhokama qilindi va fakultet
kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:



k. o'qit. Abdullayeva G.E.

Fan/modul kodi TCB135	O'quv yili 2021-2022 2022-2023 2023-2024 2024-2025	Semestr 1-2-3-4-5-6-7-8	ECTS - Kredittar 1-semestr - 5, 2-semestr - 5, 3-semestr - 5, 4-semestr - 4, 5-semestr - 5, 6-semestr - 4, 7-semestr - 3, 8-semestr - 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili Rus Ingliz Nemis		Haftadagi dars soatlari 1-semestr - 4, 2-semestr - 4, 3-semestr - 4, 4-semestr - 4, 5-semestr - 4, 6-semestr - 4, 7-semestr - 4, 8-semestr - 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Tinglash va gapirish	1-semestr - 60, 2-semestr - 60, 3-semestr - 60 4-semestr - 60 5-semestr - 60, 6-semestr - 60, 7-semestr - 60 8-semestr - 44	1-semestr - 90, 2-semestr - 90, 3-semestr - 90 4-semestr - 60 5-semestr - 90, 6-semestr - 60, 7-semestr - 30 8-semestr - 76	464+586= 1050
2.	I. Fanning mazmuni Tinglash va gapirish fani 1-8 semestrlar davomida o'qitiladi. Birinchi kurs yakunida talabalar Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumyevropa kompetentsiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'qrisidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) ga ko'ra qariyb B1-B2+ va 4 kurs yakuniga borib C1 darajada chet tilida tinglab tushuna olishlari va so'zlasha olishlari nazarda tutiladi. Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumyevropa kompetentsiyalari (CEFR)" me'yorlarida belgilanganidek og'zaki muloqotni egallash bo'yicha birinchi bosqichda asosiy e'tibor muloqot strategiyalarini rivojlantirishga va dialogda suhbatga kira olishga qaratilsa, yuqori kurslarga kelib monolog (prezentatsiya, debat, kasbga doir intervyu) ko'rinishdagi og'zaki muloqotni rivojlantirishga qaratiladi. II. Tinglash va gapirish fani o'z ichiga quyidagi mavzu va til materiallarini qamrab oladi:			

- tanishuv;
- tasodifiy uchrashuv;
- ish kunini rejalashtirish;
- sport;
- sog'lik;
- oziq-ovqat;
- turar joy; qulaylik va kamchiliklari;
- tasvirlash;
- ko'chib o'tish, joylashish;
- xarid qilish;
- sayohat qilish;
- ta'tilga chiqish;
- kasbiy hayot, ish toppish;
- qiyinchiliklarga duch kelish;
- guvohlik berish;
- dam olish;
- bayramlar;
- madaniy faoliyatlar;
- oila, birgalikda yashash, oilaviy muammolar;
- do'stlik; munosabat va axis-tuyg'ular;
- matbuot, ma'lumotlarni o'rganish, radio, televizor, pressa;
- muloqotning zamonaviy vositalari, ularni qo'llash;
- odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish;
- biror kimsa yoki narsa haqida o'z fikrini bayon qilish;
- qarshi fikr bildirish;
- maslahat, ta'na va achinishni tushunish va ifodalash;
- atrofida bo'layotgan voqealarni tushunish;
- yangiliklarni tinglab tushunish;
- guvohlik berish;
- baxs-munozaralarni tinglab tushunish, bevosita baxs-munozaralarda ishtirok etish;

Tinglash va gapirish fani bo'yicha talaba quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashi shart:

- tanish yoki o'zini qiziqtirgan mavzularda soddaroq gaplar vositasida yuzma-yuz muloqotga erkin kirisha olishi, muloqotni samarali davom ettirishi va tugallashi;
- tinglab tushunishni osonlashtirish uchun talaba turli strategiyalarni qo'llay olishi, jumladan, matnning asosiy g'oyasini tushunish, kontekstdagi tayanch so'zlarni anglay olishi;
- tanish mavzulardagi, jumladan kasbga oid mavzulardagi aniq va ravon tuzilgan ma'ruza yoki nutqni tushuna olishi va unga doir savollarga javob bera olishi;
- turli janrdagi (tele yangiliklar, hikoyalar, telereklamalar, e'lonlar va shu kabi) matnlarni tushunish va muhokama qilish uchun tinglashi;
- so'zlashuvchining kayfiyati, ohangi va munosabatini anglay olishi;
- norasmiy va yuqori kurslar davomida rasmiy ko'rinishdagi muhokamalarda o'z

nuqtayi nazarini va fikrini bimalol bayon eta olishi va boshqalarning fikrini so'rashi;

- o'qish va kasbga oid mavzulardagi aniq va batafsil og'zaki tavsiflarni tushuna olishi va matn tuza olishi;

- turli variantlar, sabab, natija, turli situatsiyalarning yutuq va kamchiliklarini e'tirof etgan holda o'z nuqtayi nazarini ifoda etishi;

- turli ijtimoiy kontekstlarda tegishli til vositalaridan o'rinli foydalana olishi;

- adabiy (standart) og'zaki tilni shovqin yoki nutq yaxshi eshitilishiga to'sqinlik qilayotgan boshqa tashqi omillar sharoitida ham to'liq tushuna olishi;

- adabiy (sandart) tilda olib boriladigan radio va TV dasturlarni (hujjatli filmlar, jonli intervyular, tok-shou, spektakl va aksariyat badiiy filmlar) tushuna olishi va mazmunini qisqacha og'zaki bayon eta olishi.

Tinglash va gapirish fani bo'yicha rasmiy vaziyatlarda muloqotni olib borishga hamda monolog ko'rinishdagi ko'nikmalarni, shu jumladan, taqdimot, debat, nutq so'zlash kabilarga e'tibor qaratiladi.

Tinglab tushunish bo'yicha: Tinglashga mo'ljallangan matn turlari

- dialoglar, suhbatlar;

- telefon orqali muloqot;

- jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, temir yo'l vokzali, aeroportdagi e'lonlar);

- ko'rsatmalar, yo'riqnomalar (masalan, auditoriyadagi o'qituvchining ko'rsatmalari, ovqat tayyorlash, velosipedni (texnika vositalarini) ta'mirlash singari oson ko'rsatmalar);

- tele va radio xabarlar, ob-havo ma'lumotlari;

- monologlar (masalan, prezentatsiyalar, nutqlar);

- tele va radio hujjatli filmlar;

- badiiy filmlar;

- qo'shiqlar

- suhbat, dialoglar;

- telefonda suhbat

- jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, vokzal, aeroport e'lonlari)

- televidenie va radio orqali beriladigan yangiliklar;

- tele va radio dasturlar (tok-shou, hujjatli filmlar);

- o'qish va kasbga oid mavzularda prezentatsiyalar, nutqlar, ma'ruzalar;

- badiiy filmlar

- intervyular

- qo'shiqlar

- audio kitoblar

Strategiyalar va ko'nikmalar

- matnni tinglab uning asosiy g'oyasini anglay olish;

- matnni tinglab, undagi muayyan ma'lumotni (masalan, sanalar, ismlar) farqlash;

- so'zlashuvchining kayfiyati, hissiyotlari va munosabatini aniqlay olishi;

- asosiy g'oyani tushunish uchun tinglash;
- muayyan ma'lumotni tushunish uchun tinglash
- tinglab konspekt qilish;
- tinglab qisqacha mazmunini o'rganilayotgan chet tili va ona tillarida bayon qilish

Og'zaki muloqot (dialog) bo'yicha:

- turli kommunikativ nutq vaziyatlari (salomlashish, kechirim so'rash, xayrlashish, navbat bilan muloqotga kirishishi, so'zlovchining nutqini bo'lmasligi yoki bo'lishga to'g'ri kelgan vaziyatlarda muloqotni davom ettirishi;
- muloqotni boshlash va tugallash strategiyalarini egallashi;
- jummalarni perifraza qilish va qaytadan ta'kidlashi; - og'zaki muloqotda tegishli milliy-madaniy me'yorlarni (masalan, iltimos va rahmat so'zlarining turli madaniyatlarda ishlatilishi, salomlashish odobi) bilishi va ularni to'g'ri qo'llashi;
- muloqot jarayonida tegishli imo-ishoralardan (masalan, diqqat bilan tinglayotganligini ko'rsatish uchun oldinga sal engashish, tushunayotganligini ifodalash uchun bosh igr'ashi) o'rinli foydalanishi;
- Talaffuz - intonatsiya (intonatsiyaning grammatik va munosabat bildiruvchi funksiyalarini farqlash)
- urg'u (so'z urg'usi, gap urg'usi)
- tovushlarni transkripsiyalar orqali o'qiy olishi;
- ona tili interferentsiyasi

Dialog

- o'qish va kasbga oid mavzulardagi dialoglarda ishtirok etib, ma'lumot almashish;
- tegishli intonatsiya va urg'udan foydalanib hissiyotlarini ifoda eta olish;
- turli mavzularda davomiy dialogga kirishish;
- yangiliklar, intervyu yoki hujjatli filmlardan parchalar mazmunini qisqacha bayon etish;
- rasmiy vaziyatlarda dolzarb mavzular bo'yicha o'z nuqtayi nazarini ifoda etish;
- debatlarida asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etish;
- o'rganilgan mavzular bo'yicha prezentatsiyalar qilish;

Mazkur fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Tinglash va gapirish fanidan talabalarning mustaqil ishlashlari uchun o'quv soati ajratilgan. Mustaqil ishga ajratilgan mavzularni o'rganishning asosiy maqsadi mavzular bo'yicha ishlash jarayonida auditoriyada olib borilgan amaliy mashg'ulotlar paytida talabalarda hosil bo'lgan tasavvur, bilim va ko'nikmalarni yanada chuqurlatirish, mustaqil xulosalar chiqarish va turli ilmiy-amaliy gepotezalarni olg'a surishga o'rgatishdir. Talabalarning mustaqil ishlarining mohiyati ma'lum mavzular bo'yicha mustaqil ishlash natijasida to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini mustahkamlash hisoblanadi. Mustaqil ishlarning

natijalari mavzular bo'yicha so'z va so'z birikmalarini yodlash, mazkur til vositalari yordamida erkin so'zlashish uchun dialogik va monologik matnlar tuzish shaklida rasmiylashtirish mumkin. Mustaqil ish uchun tavsiya etiladigan mavzular tegishli bosqichdagi mavzularning mantiqiy davomi bo'lib, talabaning tashabbusiga ko'ra erkinlashtirilishi mumkin. Har bir bosqichning o'ziga xosligidan kelib chiqib mustaqil ish shakllari turli darajada va xilma-xil bo'lishi mumkin.

Mustaqil ishlarning natijalari mavzu bo'yicha annotatsiya, referat, ma'ruza, tezislar, konspekt, retsenziya shaklida rasmiylashtirishi mumkin.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha dars materiallarini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

3. IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talabalarining quyidagi natijalarga erishishlari nazarda tutiladi:

- o'rganilgan mavzular bo'yicha rasmiy va norasmiy kontekstlarda muloqotga kirisha oladilar;
- o'tilgan mavzular bo'yicha birinchi kursda norasmiy vaziyatlarda va yuqori kurslar yakuniga kelib rasmiy vaziyatlarda muloqotga kirisha oladilar va uni davom ettira oladilar.
- talabalarda turli matnlarni tinglab tushuna olish strategiyalari va so'zlashish strategiyalari shakllanadi;
- lingvistik kurs bo'yicha berilgan mavzularda batafsil tavsiflar va nuqtayi nazarlarni ifoda etgan holda hisobotlar, qisqa bayon va prezentatsiyalar qila oladilar.

4. V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruh, mikroguruh bo'lib ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar ishlab chiqish.

5. VI. Kreditlarni olish uchun talablar:

Talabalardan o'rganilayotgan chet tilidagi tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini to'la o'zlashtirish, ya'ni chet tilidagi audio va video materiallarni tinglab, materialdagi voqea-hodisalar to'g'riysida o'z fikrini ravon bayon qilish, o'qish va yozish mahoratini namoyon qilish, chet tilining fonetik va grammatik qonuniyatlarini, tili o'rganilayotgan va chet tilida so'zlashuvchi xalqlarning madaniyatini anglash hamda chet tilida chop etilgan turli matbuot manbaalaridagi auntetik materiallarni tushuna olish talab qilinadi.

Fan doirasida talabalar Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) ga ko'ra kurslar kesimida A2 – C1 darajaga mos keladigan til materiallarini tushunish, mazmunini tahlil qilish, mavzularga oid turli matn turlarini o'qib, tinglab mazmunini tushunishlari va o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifoda eta olishlari shart.

6. VII. Asosiy adabiyotlar

Ingliz tili

1. David Bohlke, Dorothy E. Zemach (2013) Skillful 1. Listening and speaking. Macmillan.
3. Alireza Memarzadeh. Maximizer Reading, Writing, Speaking. Memarzadeh Pub. 2016.
4. Antonia Clare, JJ Wilson Speakout Intermediate. Student's Second edition
5. Richards Jack C. Developing tactics for listening, Oxford, UP, 2010, 112p
6. Kovacs K, Speaking for IELTS, Collins, 2011, 144p
7. Aish F, Tomlinson J. Listening for IELTS, Collins 2011, 144 p
8. Short J. Get ready for IELTS listening, Collins 2006, 134p
9. Frances Aeles, Steve Oakes, Speakout, upperintermediate, Pearson Education Limited, 2015
10. Mike Boyle, Ellen Kisslinger Skillful listening and speaking. Students book, 3, 2013
11. Lindsay Clandfield, Mark McKinnon, Skillful listening and speaking. Students book, 4, 2014
12. Jennefer Bixby, Jemie Scanlon. Skillful Reading and writing, students book. 2013
13. Moraig Macgillivray, Tonia Peters Reading for the real world 2, Compass Publishing, 2009
14. Mark Hancock English Pronunciation in use Intermediate, 2003
15. Martin Hewings English Pronunciation in use Advanced, 2007
16. Virginia Evans Successful writing Intermediate, Express publishing 1998

Nemis tili

1. Dallapiazza R.M., Evens S. u. a. Ziel B 2, Hueber Verlag, Ismaning. 2015.
2. Ute Koithan, Helen Schmitz, Tanja Sieber. Aspekte B1+.- Stuttgart: Klett Verlag, 2017.
3. Perlmann-Balme Michaela, Susanne Schwalb. Sicher B1+. – München: Hueber Verlag, 2012.
4. Anna Fischer Mitziviris, Sylvia Janke-Papanikolaou. Ausblick B1, Hueber Verlag, Ismaning, Deutschland. 2007.
5. Holiyarov L., S. Abdullaeva u.a. Deutsch mit Vergnügen. Toshkent, Ozkitobsavdonashriyot. 2019.
6. Dreyer H., Schmitt D. Lehr und Übungsbuch der deutschen Grammatik. Hueber Verlag. Ismaning. 2009.
7. Saidov S. Deutsche Grammatik in Übungen, Usbekiston, Toshkent, 2003.

8. Ursula Hirschfeld, Kersten Rheinke. Phonotheek Intensiv.-Berlin: Langenscheidt, 2007.
9. Kozmin O.G., Sulemova G.A. Praktische Phonetik der deutschen Sprache. – Moskva, 1990.
10. Swerlova O. Grammatik und Konversation. Langenscheidt. Berlin. 2006.
11. Michaela Perlmann-Balme, Susanne Schwalb. Sicher B2. Arbeits und Kursbuch. -Ismaning:Huebnerverlag, 2012
- 12.Oliver Bayerlein, Patricia Buchner. Campus Lesen B2+C1.- Ismaning:Huebnerverlag, 2013.
13. Hans Jürgen Heringer. Interkulturelle Kommunikation. Grundlage und Konzepte. Narr Francke Attempto Verlag. Tübingen, 20

Fransuz tili

1. Barféty M., Comprnhension orale Niveau 3. B1+, B2. Clé Internationale, 2007.
2. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 1. France, 2013.
3. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 2. France, 2013.
4. Annie Berthet, Catherine Hugot. Alter Ego A2. Hachette, Paris, 2013.
5. Dollez C., Pons S. AlterEgo 3 Méthode de français. Hachette, FLE, 2013.
6. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 1. France, 2013.
7. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 2. France, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar

Ingliz tili

1. Baker L., Gershon S. Skillful listening and speaking. Students book, 2, 2010
2. Mike Boyle, Ellen Kisslinger Skillful listening and speaking. Students book, 3, 2013
3. Lindsay Clandfield, Mark McKinnon, Skillful listening and speaking. Students book, 4, 2014
4. Christopher Turk, Effective speaking . 2003
5. Cattrell S, Skills for Success, Palgrave study guides, 2003.
6. . Lightbown p, Spada N. How language are learned, Oxford OUP, 2006

Nemis tili

1. Modellsatz.:Deutschprüfungen für Jugendliche und Erwachsene B1
2. Modellsatz :Deutschprüfungen für Jugendliche und Erwachsene B2
3. Julike Betz, Anneli Billina. Hören und Sprechen B1
4. Hören und Sprechen B1, Julike Betz, Anneli Billina

Fransuz tili

1. Annie Berthet, Catherine Hugot. Alter Ego A1. Hachette, Paris.
2. Régine Mérieux, Michèle Barféty. Compréhension Orale 1. CLE International France. Paris, 2012.
3. Catherine Dollez, Sylvie Pons. Alter ego +3, méthode de français B1. Hachette

français langue étrangère, 2012.

4. Catherine Dollez. Alter ego 4, méthode de français, B2. Paris, 2007.

Internet saytlari: Ingliz tili

1. www.teachingenglish.org.uk
2. www.onestopenglish.com
3. www.businessenglishonline.net
4. www.elgazette.com
5. www.tesol.org
6. www.tefl.com
7. www.teachertrainingvideos.com
8. www.learnenglish.org.uk
9. www.educationuk.org
10. www.bbc.co.uk/worldservice/learningenglish/
11. www.channel4.com/learning/
12. www.better-english.com/exerciselist.html
13. www.bbc.co.uk/worldservice/learningenglish/business/index.shtml
14. www.englishclub.com/index.htm
15. education.leeds.ac.uk/edu-mwe/eltwww.htm
16. www.Grammarly.com/Grammar
17. www.macmillanenglish.com/readers

Nemis tili

1. <https://www.goethe.de/de/spr/ueb.html>
2. <https://www.hueber.de/sicher/unterrichten/moodle>
3. <https://www.klett-sprachen.de/digitales/online-uebungen/online-uebungen-daf/c-867>
4. https://www.schubert-verlag.de/aufgaben/xg/xg11_01.htm
5. <https://www.derdiedaf.com/unterrichtsmaterial/erwachsene/b1/grammatik/konjunktiv-ii/>
6. <https://www.goethe.de/de/spr/ueb/daa/all/db0/db1.html>
7. https://www.schubert-verlag.de/aufgaben/uebungen_a1/a1_k02_berufe.htm

Fransuz tili

1. <http://www.lepointdufle.net/>
2. <http://apprendre.tv5monde.com/>
3. <http://enseigner.tv5monde.com/>
4. <http://lewebpedagogique.com/ressources-fle/>

5.	http://www.franceinfo.fr/
6.	https://lefflepourlescurieux.fr/
7.	Urganch davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Sapayeva R.B. – UrDU, "Roman-german filologiyasi" kafedrasl katta o'qituvchisi Xo'jayeva Z.X. – UrDU, "Roman-german filologiyasi" kafedrasl o'qituvchisi Karimova Z.U. – UrDU, "Roman-german filologiyasi" kafedrasl o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: Jumanliozov Z.O. – Urganch davlat universitet, dotsent, f.f.n. Ro'zmetov H.Q. – Urganch davlat universitet, dotsent, f.f.n.

